YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G‘OYANING O‘RNI

Axmatjonova Umida Axmatjonovna
Navoiy viloyati Konimex tuman kasb hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Maqolda yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy g‘oyaning ustivor vazifalari tahlil qilingan bo‘lib, insonni kamolga yetaklaydigan milliy g‘oyaning asosiy jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Axloq, madaniyat, milliy g‘oya, mehnatsevarlik, xulq-atvor, kasb, mahorat.
Аннотация:В статье проанализированы приоритетные задачи национальной идеи в формировании нравственной культуры молодежи, показаны основные аспекты национальной идеи, ведущие человека к зрелости.
Ключевые слова: Этика, культура, национальная идея, трудолюбие, поведение, профессия, мастерство.
Annotation: The article analyzes the priority tasks of the national idea in the formation of the moral culture of youth, shows the main aspects of the national idea that lead a person to maturity.
Key words: Ethics, culture, national idea, diligence, behavior, profession, skill.

Yoshlar tarbiyasida axloq-odob masalalari barcha davrlarda ham olimlar, tadqiqotchilar uchun dolzarb masala bo‘lib kelgan. Pedagogik fikrlar tarixidan ma’lumki, Sharq uyg‘onish davri allomalari asarlarida shaxs kamolotida axloqiy tarbiyaning o‘rni haqidagi qarashlar alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda yoshlarning axloqiy madaniyati yuksaltirishda milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalardan samarali foydalanish lozim. Bugungi yoshlar kitob o‘qish va undagi g‘oyalarga ergashish, ibrat olishdan ko‘ra, OAV tomonidan targ‘ib qilingan axloqiy me’yorlarga ko‘proq amal qiladilar. Shuning uchun ham shakllangan an’ana va qadriyatlarga toqatsizlik kabi illatlarni oldini olishda targ‘ibot-tashviqot ishlarini quruq reklama tarzida emas, balki mukammal ko‘rinishdagi ta’sirchan vositalardan foydalanish orqali olib borish lozim. Ma’naviyatli xalqning madaniyati yuksalgan, istiqboli porloq bo‘lishiga shak-shubha yo‘q, albatta. Bu jihatdan o‘zbek xalqi o‘zining boy merosi, milliy qadriyatlari bilan har qancha faxrlansa arziydi. Shu bois ham O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov, o‘tmishni anglash – o‘zlikni tiklash va jahon hamjamiyatida munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun asos, degan fikrlari madaniyatni o‘zlashtirish, uning g‘oyaviy mafkurasini chuqur bilishni taqozo etadi.

Dunyoda hech bir millat yoki xalq yo‘qdirki, uning birlashtiruvchi, umumlashtiruvchi g‘oyasi va mafkurasi bo‘lmasa. Biz buning isbotini uzoq o‘tmishdan boshlab hozirgi kungacha ko‘rishimiz mumkin. Har bir millat, xalqning o‘ziga muvofiq keladigan, millatning manfaatlarini o‘zida aks ettiradigan va umumlashtiradigan biron bir g‘oyasi yoki mafkurasi bo‘lishi muqarrar, chunki odamlar o‘z hayoti davomida nimagadir ishonishi, suyanishi kerak. Jamiyat taraqqiyotini, mustaqillik bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas. Insonning, har bir yoshning faoliyati uning ilg‘or mafkuraga qat’iy amal va e’tiqod qilishiga bog‘liq. Jamiyat manfaati va milliy istiqlol yo‘lida o‘zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste’dodini baxshida etishga tayyor turgan yetuk insonlar, yoshlar, fidoyilar bo‘lmasa, O‘zbekistonni dunyodagi eng qudratli, ilg‘or davlatga aylantirish mumkin emas. Mustaqil O‘zbekistonning eng yaqin hamda uzoq kelajagi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ana shu vazifalarni mafkuraviy ishlarni jonlantirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

https://wordlyknowledge.uz

Axloqiy madaniyatning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu insoniylikdir. Shuningdek, axloqiy madaniyat insoniy munosabatlardagi barcha g‘oyaviy tamoyillarning muhim manbai hisoblanadi. Yoshlarning axloqiy fazilatlarining uyg‘unligi, qalb nozikligi va o‘z-o‘zini nazorat qila olishga qodirligi, jamiyat, Vatan oldidagi mas’uliyat va burch hissidan iboratdir. Bu fazilatlarnnng barchasi mehnatda, odamlar bilan muloqotda oqilona extiyojlar va axloq madaniyatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda yana quyidagi vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi: bola hayotining birinchi kunlaridanoq unga me’yorda o‘sishi va rivojlanishi hamda uning xulqini tarbiyalashga yordam beruvchi rang-barang ijobiy odatlarni singdirishni keng targ‘ib qilish; yoshlarni jamiyatda umumiy qabul kilingan normalarga rioya qilgan holda uyda, ko‘chada, jamoat joylarida tarbiyalash; atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga, ularning kasb-hunar, faoliyatiga doir ishlari, qizikishlari bilan hisoblashishga o‘rgatish; xushmuomalalilik, jonkuyarlik, vazminlik, odoblilik, kamtarlik, sezgirlik, ko‘pchilikning manfaatlari bilan hisoblashish ko‘nikmalarida o‘z aksini topadigan jamoa malakalari va kattalar hamda tengdoshlar bilan bo‘ladigan muomala madaniyatini tarbiyalash va boshqalar shular jumlasidandir. Bularning barchasi yoshlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirishning g‘oyaviy-tarbiya omillari hisoblanadi, deyish mumkin.

Mafkura kishilarda, har bir yoshda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g‘ururning o‘sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati hamda imkoniyatlariga, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan mahalliychilik, guruhbozlik, urug‘-aymoqchilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da’vat etadi. Mafkura milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko‘mak beradi. U yetuk milliy ong, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg‘usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va g‘oyalarning ahamiyati kattadir.

Milliy g‘oya mamlakatimiz ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa sohalarida ro‘y berayotgan jarayonlarni ifodalaydi. Siyosiy sohada o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasi va umuminsoniyat tomonidan e’tirof etilgan qonunlarga asoslangan holda insonparvar huquqiy demokratik davlatni barpo etish; davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish; fuqarolarning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, tom ma’noda amalda qonun ustuvorligini ta’minlashga erishish; demokratiyaning zaruriy sharti bo‘lgan ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish.

Milliy g‘oyaning asosiy maqsadlaridan biri xalqimizni, yoshlarimizni mehnatsevarlikka da’vat etish. Faqat mehnat tufayli, jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlaydigan iqtisod sohasini rivojlantirish, moddiy ne’matlar yaratish tufayligina biz rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishimiz mumkin bo‘ladi. Negaki, har qanday g‘oya amaliyotga asoslanmasa va mehnat bilan bog‘lanmasa, o‘z siyosiy kuchini yo‘qotadi va aksincha, mehnat bilan uyg‘unlashib ketadigan g‘oya xalqning e’tiqodiga aylanib ketadi. Madaniy-ma’naviy sohada umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, tilimiz, axloq-odobimiz, dinimizni tiklash, ularni yangi bosqichga ko‘tarish; O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odati va an’analarini rivojlantirish, ularga yaratib berilgan imkoniyat va shart-sharoitlarni yanada kengaytirish; yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati uchun qayg‘uradigan, yangicha fikrlaydigan, imon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish; fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’at, tibbiy xizmat, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan va ma’nan sog‘lom bo‘lgan avlodni tarbiyalash sohalarida ijobiy natijalarga

https://wordlyknowledge.uz

erishish; ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilish.

Turli yo'nalishdagi g'arbona xatti-harakatlar, ommaviy madaniyat ta'siri ostida shakllangan qarashlar bugungi kunda bizning o'lkamizga ham kirib kelmoqda va o'z salbiy ta'sirini yoshlarimizga ko'rsatishi mumkin. Milliy axloqiy madaniyatimizga bo'layotgan tahdid va tajovuzlarning xavfi-xatari ularning mamlakatimizga kirib kelishidagi yo'llarining deyarli ochiq ekanligidadir. Global o'zgarishlar davrida axborot komunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanayotganligi va uning keng imkoniyatlari mazkur muammoni yanada chigallashtirishga olib kelmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda "Milliy axloqiy madaniyat xavfsizligini ta'minlash"ning zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida axloqiy madaniyatni targ'ib qilishda milliy g'oyaning o'rni haqida gapirganda, albatta Konstitutsiya, qonunlar, Prezidentimiz Farmonlari va Hukumat qarorlarini hurmat qilish va ularga qat'iy rioya etish ruhida tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ierarxik tenglik, ya'ni pastdan yuqoriga, bosqichma-bosqichlikka va tadrijiylikka rioya qilinuvchi munosabatlar tizimi formulasi sharq donishmandlari ta'kidlagan insoniy qanoat, insof, diyonat, hurmat, kattaga hurmat, kichikka izzatdan iborat, anglangan, ongli ravishda cheklanishlarni e'tiborga olgan holda yashashni taqozo etadi. Mazkur talab jamiyatni faqat qonunlar kuchi orqaligina emas, balki ma'naviyat vositasida, axloqiylik tamoyillariga asoslanib boshqarishga yo'l ochadi. Bularning barchasi qanday g'oyaga asoslanishga, ya'ni muayyan g'oyaga bog'liq holda kechadi.

Milliy g'oya barkamol shaxs, komil inson g'oyasi yetakchi g'oyalar sifatida berilgan ekan, biz yosh avlod tarbiyasida uning o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga o'rgata olishimiz, o'zligini anglash orqali, har bir taraqqiyot bosqichida o'z barkamollik cho'qqisining nimalar va qanday omillar hisobiga rivojlanishi mumkinligini o'rgata olishimiz kerak. Biror kasb-korni tanlagan talaba yoki mutaxassis o'sha o'zi tanlagan hunarda yuqori samaralarga erishish uchun o'zidan shaxsan qaysi sifatlar talab qilinishini yaxshi bilishi va shu orqali kasbiy mahorat yoki professionalizm cho'qqilarini zabt etishi mumkin. Kasbiy mahorat bu shunday ulug' ne'matki, uning samarasi nafaqat o'sha insonning – kasb sohibining o'ziga, yaqinlari, oilasiga naf keltiradi, balki buning oqibati yaxlit jamiyat va insoniyatga manfaatli ekanligini uni ijodiy ishlashga, o'z takomil darajasidan qoniqmagan holda tinimsiz izlanishda bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'anaviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. –70 b.
2. Jalolov A., Chelovecheskiy faktor: filosofiya, ideologiya, politika.-T.: O'zbekiston, 1991. 24 str.
3. Erkaev A. Ma'naviyat-millat nishoni : monografiya. Toshkent : Ma'naviyat, 1999. - 42 b.

https://wordlyknowledge.uz